

Qorovulbor tuman

Axborot - kutubxona markazi

Axborot - bibliografiya xizmati

“So’zimni o’qib anglagaysiz o’zimni”

(9 fevral - Buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, davlat
arbobi Mir Alisher Navoiy tavalludining

585 yilligiga bag’ishlab)

TAVSIYA RO’YXAT



2026 yil

**“Jahon adabiyoti va tafakkuri tarixida o‘chmas iz
qoldirgan Alisher Navoiyning serqirra
ijtimoiy-siyosiy, ijodiy, ilmiy-ma’rifiy faoliyati,
boy adabiy-badiiy merosi asrlar davomida yuksak insonparvarlik,
Vatanga sadoqat, adolat va ezgulik timsoli sifatida
hamisha jahon ahlining e’tiborini tortib kelmoqda.
Hazrat Mir Alisher Navoiy o‘ta murakkab
sharoitda milliy va umuminsoniy g‘oyalarni
baland ko‘tarib maydonga chiqqani,
o‘zbek adabiy tiliga asos solib, uning o‘lmas ruhi,
qudrati va latofatini har tomonlama isbotlab bergani
chinakam ma’naviy jasorat namunasi,
desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbek mumtoz adabiyoti va milliy ma’naviyatimiz tarixida Alisher Navoiy alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat buyuk shoir, balki davlat arbobi, mutafakkir, tilshunos va insonparvar sifatida ham tanilgan. Alisher Navoiy o‘z ijodi orqali turkiy tilning badiiy va ilmiy salohiyatini yuksak darajada namoyon etib, o‘zbek adabiy tiliga mustahkam poydevor qo‘ydi.

Alisher Navoiy (to‘liq ismi — Nizomiddin Mir Alisher) 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug‘ilgan. U temuriylar davrining yirik davlat va jamoat arbobi, buyuk shoir, mutafakkir hamda o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi. Navoiyning otasi G‘iyosiddin Kichkina temuriylar saroyida xizmat qilgan bo‘lib, bu holat Alisher Navoiyning yoshligidan yaxshi ta’lim va tarbiya olishini ta’minlagan.

Alisher Navoiy Hirot, Mashhad va Samarqand shaharlarida tahsil olib, arab, fors va turkiy tillarni mukammal egallagan. U Sharq adabiyoti, falsafa, tarix, mantiq va tasavvuf ilmlarini chuqur o‘rgangan. Yoshligidan she’riyatga qiziqqan Navoiy dastlab fors tilida, keyinchalik esa turkiy tilda ijod qila boshlagan. Alisher Navoiy turkiy va fors tillarida 30 dan ortiq yirik asarlar yaratgan. Shoir o‘zbek adabiyotida turkiy tilning imkoniyatlarini amalda isbotlab, uni yuksak adabiy til darajasiga ko‘tardi.

Navoiyning eng mashhur asari — **“Xamsa”** bo‘lib, u besh dostonni o‘z ichiga oladi:

Hayrat ul-abror

Farhod va Shirin

Layli va Majnun

Sab' ai sayyor

Saddi Iskandariy

Bu dostonlarda insonparvarlik, adolat, muhabbat, axloq va komil inson g'oyalari yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Shoirning lirikasida jamlangan "Xazoyin ul-maoniy" devoni to'rt qismdan iborat bo'lib, unda minglab g'azal, ruboiy va boshqa she'riy janrlar mujassamdir. Bundan tashqari, Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning fors tilidan kam emasligini ilmiy asosda isbotlab bergan.

Navoiy ijodi nafaqat O'zbekistonda, balki Yevropa, okeanorti mamlakatlarida ham yuksak qiziqish bilan o'rganiladi. Shu sabab, adabiyotshunoslik fanidan mustaqil "Navoiyshunoslik" fani vujudga keldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy ijodi u yashab o'tgan davrdayoq mukammal o'rganila boshlagan va hamon o'rganilmoqda. Uning ijodi va hayotiga bag'ishlab butun dunyoda minglab ilmiy ishlar, maqolalar, traktatlar, asarlar, filmlar, spektakllar, badiiy asarlar yaratilgan. Jumladan, o'zbek adabiyotida yozuvchi Oybekning "Navoiy" romani, (bu roman bilan Oybek o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar haqida badiiy asar yaratish an'anasiga asos soladi) Mirkarim Osimning turkum hikoyalari mashhur. Yevropada Navoiy asarlariga qiziqish katta. Bu borada ko'plab sharqshunos olimlarning ishlari misol bo'la oladi. Chunki, uning asarlari shunchaki badiiy xayolot mahsuli bo'lib qolmasdan, sharq xalqlari tarixi va falsafasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy asarlaridagi uslub, yo'nalishlar keyinchalik adabiyotda ko'plab oqimlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Buyuk sharqshunos olim Armeniy Vamberi Navoiy haqida: ***"hammaga ma'lum va mashhur buyuk o'zbek shoiri"*** deya e'tirof etgan. Yana bir buyuk mutafakkir, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Navoiy haqida "Boburnoma" asarida: ***"Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas"*** deya to'xtalib o'tgan.

Har yili 9-fevral - Navoiy tavallud topgan kun respublika bo'ylab keng miqyosda nishonlanadi. O'zbekistonning har bir burchagida Navoiy nomi bilan nomlangan maskanlar va manzillar bor. Jumladan: bir viloyat (Navoiy viloyati), shahar, (Navoiy shahri), oliy o'quv yurti (Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti instituti), O'zbekiston milliy kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San'at saroyi, Toshkentdagi metro bekati, o'nlab ko'chalar va jamoa xo'jaliklariga Alisher Navoiy nomi berilgan. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti hamda talabalar uchun davlat stipendiyasi ham mavjud.

Respublika hududlaridan tashqari Alisher Navoiy haykallari dunyoning Moskva, Minsk, Vashington, Tokio, Boku, Dushanbe, Seul kabi shaharlarida o'rnatilgan.

Alisher Navoiy ijodida insonni komillikka yetaklash, ilm va axloqni ulug'lash, adolatli jamiyat g'oyasi asosiy o'rinni egallaydi. Uning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va jahon adabiyoti xazinasining nodir durdonalari hisoblanadi. Navoiy temuriy hukmdor Husayn Boyqaro bilan yaqin do'st bo'lgan va uning hukmronligi davrida yuqori lavozimlarda ishlagan. U davlat arbobi sifatida madrasalar, masjidlar, shifoxonalar, ko'priklar va rabotlar qurdirib, xalq farovonligi yo'lida katta xizmatlar qilgan. Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirot shahrida vafot etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish o'zbek mumtoz adabiyoti hamda milliy ma'naviyat taraqqiyotini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir o'z asarlari orqali turkiy tilning boy badiiy va ilmiy imkoniyatlarini amalda namoyon etib, uni yuksak adabiy til darajasiga ko'tardi. Navoiyning badiiy va ilmiy merosi nafaqat o'z davri, balki keyingi avlodlar adabiy tafakkuriga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Hazratning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, ilm-ma'rifat va komil inson g'oyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu bois uning ijodiy merosi yosh avlodni ma'naviy barkamollikka yetaklovchi muhim manba sifatida qadrlanadi, hamda doimiy ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Hurmatli kitobxonlar! Sizlarga ulug' shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy tavalludiga atab tuzilgan tavsiya ro'yxatdan foydalanib o'qishingizni tavsiya etamiz . Ushbu tavsiya ro'yxatda shoirning eng sara kitoblari ro'yxati o'rin olgan. Marhamat o'qing bilimlaringizni oshiring!

1. Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. 1-jild: A - S/ taxrir xay'ati A. Qayumov, ijodiy gurux S. Ganieva, mas'ul muxarrir SH. Sirojiddinov, takrizchi D. Saloxiy. – Toshkent : Sharq NMAK Bosh taxririya, 2016. – 536 b.
2. Alisher, Navoiy. Maxhub ul-qulub: xozirgi o'zbek tiliga tabdil/ A. Navoiy ; mas'ul muxarrir SH. Sirojiddinov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. – Toshkent: Sano-standart, 2018 . – 192 b.
3. Alisher, Navoiy. Навоий, Алишер(Nizamaddin Mir Alisher) Lison ut-tayr/ A. Navoiy; so'zboshi, tabdil va izoxlar muallifi M. Abdulkayr, A. Parдав. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – 2019. – 544 b.
4. Navoiy g'azaliyoti talkinlari/ to'plovchi N. Jumaxo'ja. – Toshkent : O'zbekiston NMIU . – 2018. – 384 b.
- 5 Mallaev, Natan. Alisher Navoiy va xalk ijodiyoti / N. Mallaev . – Toshkent : G. Gulom nomli NMIU. – 2015. – 431 b.
6. Navoiy, Alisher. Muhokamatu –l-lug'atayn /Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent : Akademnashr. – 2017 . – 128 b.
7. Navoiy, Alisher. Xamsa Nasriy bayon/ Alisher Navoiy; Nashrga tayyorlovchi O'.Yo'ldoshev. – Toshkent : Navro'z nashriyoti. – 2019. – 712 b.
8. Navoiy, Alisher Navoiy. – Toshent : Yangi asr avlodi. – 2019. – 336 b.

- 9.Navoiydan savod ochdim.../ to'plovchi va tarjimon Ya. Ko'chkorov. – Toshkent : O`zbekiston . – 2016. – 176 b.
- 10.Oybek Navoiy : roman/ Oybek ; mas'ul muxarrir N. Karimov. – Toshkent : O`zbekiston, 2016. - 456 b.
- 11.Rustamov. A.Alisher Navoiy gazallarida xazil-mutoyiba / tuzuvchi A. A'zamov, maxsus muxarrir A. Rustamov. - 2-to'ldirilgan nashri . – Toshkent: G. Gulom nomli NMIU . – 2015. – 158 b.
- 12.Suyun, A.Суюн, Азим Navoiydan topdim : she'rlar, xikoyalar/ A. Suyun. – Toshkent : O`zbekiston . – 2015. – 168 b.
13. Xayitmetov A.Хайитметов, Абдукодир Navoiy lirikasi/ A. Xayitmetov; nashrga tayyorlovchi; N. Jumaxo'ja, mas'ul muxarrir A. P. Qayumov. -to'ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri. – Toshkent : O`zbekiston . – 2015 . – 328 b.
- 14.Xoksor, Muxammad Rizobek. Alisher Navoiy asarlari lugati : Muntaxab ul-lugot, Zubd ul-lug'ot / M. R. Xoksor ; mas'ul muxarrir SH. Sirojiddinov ; nashrga tayyorlovchilar M. Ismoilov, A. Akbarov ; eski o'zbek yozuvidan kirill yozuviga tabdil kiluvchilar M. Ismoilxon, X. Ismoilov ; ilmiy maslahatchi V. Raxmonov ; takrizchi K. Sodikov; O`zbekiston Respublikasi FA, Abu Rayxon Beruniy nomidagi SHarkshunoslik instituti, O`zbekiston Milliy universiteti. – Toshkent : Akademnashr . – 2017. – 416 b.
- 15.Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami: 15 tomlik / O`zFA A.S.Pushkin nom.Til va adabiyot in-ti, H.S.Sulaymonov nom. qo'lyozmalar in-ti; Tahrir hay'ati: Komil Yashin va boshq. - Toshkent : Fan. – 1987. – 2003.
- T.1. Badoyi' ul—bidoya /Tekstni tuzuvchi SH.SHaripov; Mas.muh. A.Qayumov.-1987.-724 b.
- T.3. Xazoyin ul-maoniy : G'aroyib us-sig'ar /Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrga tayyorl : Hamid Sulaymon; Mas.muh.P.SHamsiev. – 1988. – 610 b.
- T.4. Xazoyin ul-maoniy : Navodir ush-shabob /Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrga tayyorl.: Hamid Sulaymon; Mas.muh. S.Mutallibov. – 1989 . – 560 b.
- T.5. Xazoyin ul-maoniy : Badoe' ul-vasat /Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrga tayyorl.: Mazkur tomni qayta nashrga tayyorl.: F.Sulaymonova; Mas.muh. S. Mutallibov. – 1990. – 544 b.
- T.6. Xazoyin ul-maoniy : Favoyid ul-kibor /Ilmiy-tanqidiy tekst asosida nashrga tayyorl.: Hamid Sulaymon; Mas.muh. S.Mutallibov.-1990-568 b.
- T.7. Xamsa: Hayrat ul-abror /P.SHamsiev ilmiy-tanqidiy tekst asosida dostonni izohlar bilan nashrga tayyorl. : A.Hayitmetov, I.Haqqulov; Mas.muh. Ye.Ishoqov. – 1991. – 392 b.
- T.8. Xamsa: Farhod va SHirin /P.SHamsiev ilmiy-tanqidiy matni asosida dostonni izohlar bilan nashrga tayyorl. S.G'anieva; Mas.muh. S.Erkinov. – 1991. – 544 b.
- T.9. Xamsa: Layli va Majnun /Mas.muh. S.G'anieva. – 1992. – 356 b .

- T.10. Xamsa: Saba'i sayyor /P.SHamsiev ilmiy-tanqidiy matni asosida dostonni izohlar bilan nashrga tayyorl. M.Mirzaahmedova; Mas.muh. A.Hayitmetov. – 1992. – 448 b.
- T.11. Xamsa: Saddi Iskandariy /Nashrga tayyorl : M.Hamidova, T.Ahmedov; Mas.muh. S.Erkinov.-1993. – 640 b.
- T.12. Lison ut-tayr /Izohlar bilan nashrga tayyorl. SH.Eshonxo'jaev; Mas.muh. A.Qayumov1. – 1996. – 326 b.
- T.13. Majolis un-nafois /Matnni izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorl. S.G'aniev; Mas.muh. A.Hayitmetov. – 1997. – 282 b.
- T.14. Mahbub ul-qulub: Munshaot: Vaqfiya /Matnni izohlar bilan nashrga tayyorl. S.G'anieva; Mas.muh. M.Mirzaahmedova. – 1998. – 302 b.
- T.15. Xamsat ul-mutahayyirin: Haloti Sayyid Hasan Ardasher: Holoti Pahlavon Muhammad: Nazm ul-javohir /P.SHamsiev matni asosida tarjima va izohlarni to'ldirib, nashrga tayyorlovchi S.G'anieva; Mas.muh. M.Mirzaahmedova. – 1999. – 336 b.
- T.16. Muhokamat ul-lug'atayn: Mezon ul-avzon: Tarixi anbiyo va xukamo: Tarixi muluki Ajam: Arba'in: Siroj ul-muslimin Munojot: Risolai tipr andahtosh /Matnni P.SHamsiev nashri asosida izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorl. S.G'anieva; Mas.muh. M.Mirzaahmedova. – 2000. – 336 b.
- T.17. Nasoyim ul-muhabbat /Nashrga tayyorl.: S.G'anieva, M.Mirzaahmedova; Mas.muh. S.Rafiddinov. – 2001. – 518 b.-(A.Navoiy nom. Til va adabiyot in-ti, Alisher Navoiy nom Adabiyot muzeyi).
- T.18. Devoni Foniyy /Nashrga tayyorl : Hamid Sulaymon, Murodiy, S.Rafiddinov; Mas.muh. S.Rafiddinov. – 2002. – 550 b.
- T.19. Devoni Foniyy (davomi) /Nashrga tayyorl : Hamid Sulaymon, S.Rafiddinov Murodiy; Mas.muh. S.Rafiddinov. – 2002. – 599 b.
- T.20. Devoni Foniyy (davomi): Qasidalar : Mufradot: Ilovalar /Nashrga tayyorl. va mas.muh. S.Rafiddinov. – 2003. – 567 b.
- 16.Navoiy Alisher. Arba'in hadis. Qirq hadis: SHarhi /So'z boshi mualliflar va sharhlovchilar: Q.Ahad, O.Mahmud; Xattot P.Samad; Mas.muh. S.Rafiddinov. – Toshkent : Yozuvchi. – 1991. – 30 b.
- 17.Navoiy Alisher. Arba'iy /Nashrga tayyorl : S.Hasan; SHarhlovchi A.Rustam; Tahrir hay'ati A.Samad (mas.muh.) va boshq.-Toshkent : Meros, 1991.-32 b.
- Navoiy Alisher. Aforizmlar.-Toshkent : 1991. – 130 b.
- 18.Navoiy Alisher. Baqo guli: G'azallar /To'plovchi va so'z boshi maullifi Muhammad Ali.-Toshkent : Adabiyot va san'at nashriyoti. – 1991. – 160 b.
- 19.Navoiy Alisher. "Layli va Majnun" dostonidan /Tahrir hay'ati A.P.Qayumov (bosh muh.); Mas.muh. A.Qayumov.-Toshkent : O'zbekiston. – 1991. – 123 b.

- 20.Navoiy Alisher. Lison ut-tayr: (Nasriy bayoni bilan) /Tahrir hay'ti A.Qayumov va boshq.; Tuzuvchi M.Rahmonov; So'z boshi muallifi, izoh va lug'at tuzuvchisi V.Rahmonov.- Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti. – 1991. – 464 b.
- 21.Navoiy Alisher. Sab'ai sayyor: (Nasriy bayoni bilan) /Tahrir hay'ati A.Qayumov va boshq.; Mas.muh. B.Hasanov. – Toshkent : Adabiyot va san'at nashriyoti. – 1991. – 544 b.
- 22.Navoiy Alisher Saddi Iskandariy: (Nasriy bayoni bilan) /Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq.; Mas.muh. K.Tohirov. – Toshkent :Adabiyot va san'at nashriyoti. – 1991. – 832 b.
- 23.Navoiy Alisher. Farhod va Shirin: (Nasriy bayoni bilan).-Toshkent : Adabiyot va san'at nashriyoti. – 1991. – 248 b.
- 24.Navoiy Alisher. G'azallar. Sharhlar /Muh.: Asad Dilmurod, Ra'no Akrom qizi. – Toshkent : Kamalak. – 1991. – 176 b .
- 25.Navoiy Alisher. Qaro ko'zim: G'azallar.-Toshkent : Adabiyot va san'at nashriyoti. – 1991. – 768 b.
- 26.Navoiy Alisher.Saddi Iskandariy: Nasriy bayoni bilan. – Toshkent : G'G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi:2006. – 672 b.
- 27.Navoiy Alisher.Farhod va Shirin: Nasriy bayoni bilan.-Toshkent : G'G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. – 2006. – 536
28. Navoiy Alisher Layli va Majnun : Nasriy bayoni bilan.-Toshkent : G'G'ulom nomidagi nasriyot- matbaa ijodiy uyi:2006. – 320 b.
- 29.Navoiy Alisher Sabbai Sayyor: Nasriy bayoni bilan. – Toshkent : G'G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. – 2006. – 440b.
- 30.Navoiy AlisherHayrat ul-Abror: Nasriy bayoni bilan. – Toshkent : G'G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. – 2006. – 392b.
39. Navoiy,Alisher. Hayrat ul-abror|A.Navoiy. – Toshkent :T'G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 2020. – 384 b.
40. A.Navoiy. Mahbub ul-qulub (Qalbga mahbub hikmatlar va hikoyalar). – Toshkent: “Sano-standar. – 2018. – 192 b.

Vaqtli matbuot nashrlari:

1. Erkinov, A. “ Gar Navoiydin ado so`zini o`tkarsa”: [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /A.Erkinov.// Xalq so`zi. – 2023. – 3 fevr. – №23. – 4b.
2. Xollieva, G.Jaxonga sochilgan nodir durdonalar : [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /G.Xollieva.// Yangi O`zbekiston . – 2023. – 3 fevr. – №23. – 6b.
3. Pardayeva,M.Umrboqiy qadriyatlar kuychisi ”: [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /M.Pardayeva.//Buxoronoma. – 2023. – 4 fevr. –№9. – 4b.
4. Jo`rayeva, D.Kimki Navoiyni o`qisa...”: [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] / D.Jo`rayeva.// Buxoronoma. – 2023. – 4 fevr. – №9. – 4b.

5. Eshboyev, T. Ey soʻz, be balo ajabgursen...”: [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] / T.Eshboyev // Xalq soʻzi. – 2023. – 7 fevr. – №25. – 4b.
6. Saloxiy, D.Ulugʻ mutafakkir merosi insoniyat mulki : [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /D.Saloxiy // Xalq soʻzi . – 2023. – 7 fevr. – №254. – b.
7. Olim, S. Navoiy qancha va nechta janrda asar bitgan? [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /S. Olim // Yangi Oʻzbekiston . – 2023. –1 fevr. –№26. –6 b.
8. Mavmudov, N.Navoiy merosini teran oʻrganish yoʻlida : [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /N.Maxmudov // Yangi Oʻzbekiston . – 2023. –4 fevr. –№24. –6b.
9. Tojimatova, M.Gavhare topdim, ani koʻnglumda pinxon ayladim...: [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /M.Tojimatova.// Yangi Oʻzbekiston . – 2023. –7 fevr. –№25.
10. Tojimatov, M.Navoiyda uzoqlashgan avlod bizdan emas.. [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /M.Tojimatov.// Yangi Oʻzbekiston . – 2023. –8 fevr. –№26. –6b.
12. Sayyid, S.Erk va ulugʻlik tomsoli. [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /M.Tojimatov.// Yangi Oʻzbekiston . – 2023. –9 fevr. –№27. – 1- 4b.
13. Sobirov, A.Xazrat daxosi hamon tilimizni boyitishda davom etmoqda : [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /A.Soborov.// Yangi Oʻzbekiston . – 2023. – 9 fevr. –№27. –4b.
14. Isomiddinov, Z.Navoiyga bagʻishlangan oltin kitob: [Alisher Navoiy tavalludining 582 yilli] /Z.Isomiddinov // Yangi Oʻzbekiston . – 2023. –9 fevr. –№27. –4b.
15. Nosirov, I. “Boʻlmasin xar ne yozarsen illo binafsh” [Alisher Navoiy xazratlarining xar bir asari ulkan ijod namunasi] / I.Nosirov // Xalq soʻzi. – 2024. – 27 yanv.
16. Saidov, A. “Mamlakat ustuni, davlat tayanchi” [Navoiy xayoti va faoliyatiga oid yangi asar] A.Saidov // Xalq soʻzi. –2024. – 23 yanv.
17. Habibova, M. Qalbga mahbub hikmatlar:[Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari toʻgʻrisida] M.Habibova // Maʼrifat. –2024. –17 yanv. –11 b.
18. Pardayeva M.Ikki buyuk mutafakkir murabbiy: [joriy yil 2 fevral kuni viloyatda oʻtkaziladigan maʼnaviy maʼrifiy oʻquvi Navoiy va Bobur xayoti va ijodiga bagʻishlanadi] / M.Pardayeva //Vuxoronoma. – 2024. –31 yanv.
19. Эркинов, А. Буюк шоирнинг янги топилган девони :[Алишер Навоий таваллудининг 584 йиллигига атаб] / А. Эркинов // Вухоронма . – 2024 . – 9 fev .
20. Каримова, С.”Сўзимни ўқуб англағайсен ўзумни:[Мир Алишер Навоий таваллудининг 583 йиллигига атаб] / С. Каримова // Вухоронма . – 2024 . – 9 fev.
21. Ибрагимов, Р. Улуғ аждодларга эхтиром кўрсатилди девони :[икки буюк даҳога атаб] / Р. Ибрагимов // Вухоронма . – 2024 . – 9 fev .
22. Саййид, С. Навоийга етмоқ бахти : [9 февральАлишер Навоий таваллуд топган кунга атаб] / С. Саййид // Халқ сўзи . – 2025 . – 9 fev.
23. Юнусов, М. Мутафаккир ижодида давлат бошқаруви ва раҳбарлик масъулияти:[Мир Алишер Навоий таваллудининг 585 йиллигига атаб] / М. Юнусов // Вухоронма . – 2025 . – 9 fev.

Tuzuvchi: G. Axmedova

